

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA
INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING O'RNI
(METODIK TAVSIYA)**

Sayidmaxmedova Donoxon Ibragimjanovna

Andijon shahar 32- umumiy o'rta ta'lif maktabi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinfni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va ularning foydali jihatlari, hamda usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, ko'nikma va malakalar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, texnologiya, o'qitish, sharqona tarbiya, innovatsion metodlar.

KIRISH

Bugungi kunda shaxs shakllanishi uning ijtimoiylashuviga doir tadqiqotlar ta'lif muammolari bilan bog'liqlikda amalga oshirilib, uning turli jihatlari o'rganilib, bahs doirasi chuqurlashib, kengayib bormoqda. Insonning madaniy-ijtimoiy shartlangan xulq-atvori bilan bog'liqlikda ijtimoiy intellekt bilan bog'liq qator ilmiy izlanishlarda tadqiq etilmoqda. Bolalik inson hayotidagi o'ziga xos davr bo'lib, bu davrda bola jamiyatning an`analari, qadriyatları, madaniyatini qabul qiladi, bilimlarni egallaydi va shaxs sifatida shakllanib boradi. Ta'lif o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lif va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'lifning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda

shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rini foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar»

metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o‘yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so‘zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.

«Videotopishmoq» metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta’lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

o‘quvchilar e’tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;

o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;

jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;

o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O‘quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Masalan, «Elektr jihozlari» (1-sinf), «Yil fasllari» (2-sinf) kabilar asosida o‘quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi.¹ Darslarda axborot texnologiyalarining ishlatalishi, innovatsion g‘oyalardan va yangi pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini, ularning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Bulardan samarali foydalanish o‘qituvchidan juda yuksak pedagogik mahorat talab qiladi. Biz o‘quvchilar har doim jajji o‘quvchilarimz uchun izlanishda, yangiliklar yaratishda bo`lishimiz lozim va bizning eng dolzarb vazifalarimizdan biridir.² Masalan, Xans Kristyan Andersenning “Bolalar

gurungi” ertagida (2-qism) qo’llanilgan. “Arra” metodi. Mazkur metodga ko’ra kichik guruh 4-5 o’quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a’zolari yangi mavzu yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydilar. Guruh ichida o’quvchilar rivoyat matnini qismlarga ajratib, bo’lib oladilar. Har bir o’quvchi o’ziga tegishli qismini puxta o’zlashtirib “mutaxassis”ga aylanadi. Ma’lum vaqtdan so’ng har bir kichik guruhdagi “mutaxassis”lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o’tkaziladi. Shu tarzda rivoyat mazmunini barcha o’quvchilar o’zlashtirib oladilar. Maqsadi: o’quvchilarda muloqotlashuv, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o’rgatish. Vazifasi: o’quvchilarni guruh bilan ishslash, guruh a’zolariga o’z fikrini tushuntirib, isbotlashga o’rgatish. Masalan, Xondamirning “Tanbeh” rivoyatida qo’llanilgan. Boshlang’ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. Yuksak ma’naviyatga ega bo’lgan, barkamol, sog’lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta’lim berish mamlakatimizning ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir.³

Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta’limga innovatsion yondashuvning ijtimoiypedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o’lchanadi:⁴

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta’lim tizimi, xususan, oliy tahlim muassasalaridagi o’quv jarayonini ilg’or xorijiy tajribalarni o’rganish, ta’limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2. Talaba-yoshlardagi ma’lumotlilik darajasi, intelektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo’naltirilgan o’qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

3. Pedagogik innovatsiyalarni o’zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o’qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati. Fanlarni onlayn o’qitish jarayonida ta’limning zamonaviy axborot kommunikatsion

texnologiyalaridan foydalanganimizda fan bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimotlar namoyish qilganimizda talabalar ko'rish orqali chuqurroq tasavvur va bilimga ega bo'ladilar. Bizningcha boshlang'ich sinf darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish katta ijobiy natija beradi.⁵ Boshlang'ich ta'lim davrida o'yin faoliyatining o'mini endi o'qish faoliyati egallaydi. O'qib-o'rganish bolaning vazifasi, ijtimoiy burchi bo'lib qoladi. O'qish jarayonida u darsliklarini va o'quv qurollarini saranjom saqlash, o'z vaqtida o'rnidan turish, maktabga belgilangan vaqtda borish, uyga berilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ko'nikmalarni o'zlashtiradi. O'quvchi tobora mas'uliyatli bo'lib boradi. Bilimlar bolaning saviyasini o'stiradi, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, sezgilarini va irodasining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bu davrda ham bolaning diqqati hali beqaror bo'ladi. Boshlang'ich sinfda o'quvchi xotirasida ham o'zgarishlar ro'y beradi. O'quvchi birinchi sinfdan boshlab, ta'lim jarayonida o'quv materialining ko'p qismini ixtiyoriy ravishda eslab qoladi. Shu bilan birga o'z-o'zini doimo nazorat qilib borishi lozim. Buning natijasida o'quvchining xotirasi takomillashadi, tafakkuri o'sadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz joizki, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'zini o'zi o'qitish faoliyati motivatsiyasini kuchaytiradi, chunki bu ijodiy samarali kasbiy faoliyatning individual uslubini shakllantirish va rivojlantirishga, kasbiy mahoratni, kasbiy faoliyat va kompetensiya sifatlarini va professional introspeksiya qobiliyatlarini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1) "Boshlang'ich sinfda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish usullari" Umida Mamadjonova
- 2) Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T: «O'zbekiston», 2009, 15-bet.

3)“Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan boshlang`ich ta`lim samaradorligini oshirishda foydalanish” Soadat Eshmamatova.2022-yil.

4) “Boshlang’ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o’ziga xos xususiyatlar” Usmononova Dilshoda

5) G’afforova. Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar. – T.: 2016

6) “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda axborottexnologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar” Eshmirzayev G’ulomjon. www.kokanduni.uz.

7) Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

8) SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Bahtiyor oila” uslubiy qo’llanma T: “HIOL- NASHR” 2022y 355 b

9) Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. - T.: «Ma’naviyat», 2013.